

## **SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Qodirov Aqliddin Hakim o‘g‘li*  
*[Qodirov\\_aqliddin@gmail.com](mailto:Qodirov_aqliddin@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish tartibini o'ziga xos xususiyatlari keng yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasidagi soliq tekshiruvining turlari va uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatini yanada rivojlantirishda davlat moliyaviy nazoratining o'rni va ahamiyatini oshirish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** soliq, davlat moliya nazorati, moddiy ishlab chiqarish, moliyaviy nazorat, davlat siyosati, iqtisodiy o'sish, byudjet-soliq siyosati, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, bozor munosabatlari, pul jamg'armalari, soliq subyektlari, moliya tizimi, majburiy to'lovlar

### **ANNOTATION**

The article gives a wide overview of the specifics of the organization and procedure for conducting tax control. The types of tax audit in the Republic of Uzbekistan and the peculiarities of its organization, ways to increase the role and importance of state financial control in the further development of their activities have been analyzed.

**Keywords:** tax, state financial control, material production, financial control, public policy, economic growth, Budget-Tax Policy, financial stability, economic security, market relations, Monetary Funds, Tax entities, financial system, mandatory payments

### **KIRISH**

Davlat moliya nazoratining sohalaridan biri soliq munosabatlari sohasi bo'lib, davlat tomonidan soliq nazorati amalga oshirilishini taqozo etadi. Bunday nazorat moliya nazoratiga xos jihatlarga, biroq ayni paytda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Soliq nazoratining o'ziga xos jihat shundaki, u davlat moliya nazoratiga nisbatan torroq faoliyat doirasida amalga oshiriladi. Davlat moliya nazoratining obyekti moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohada, moliya tizimining barcha bo'g'inlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan pul munosabatlari bo'lsa, soliq nazoratining obyekti soliq munosabatlari, ularning huquqiy

bazasi hisoblanadi<sup>1</sup>. Soliq munosabatlari davlat (soliq nazorati subyektlari) bilan soliq subyektlari - shaxsiy mablag'lari hisobidan soliqla to'lash huquqiy majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladi. Soliq munosabatlaridan avval soliq nazorati subyektlari tomonidan belgilangan normalar, qoidalar doirasida nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishga doir (boshqaruv, huquqiy) chora-tadbirlar tizimi qabul qilinishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish tartibini o'ziga xos xususiyatlari hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo'yicha asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga E.A.Arens, Dj.K.Lobbek, A.D.Sheremet va V.P.Suytslarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan esa, bu masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, e'lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari o'rganilgan. Masalan, R.D.Dusmuratov, N.F.Karimov, Z.T.Mamatov, M.M.To'laxo'jaeva, I.N.Qo'ziev, B.Q.Hamdamov va I.I.Melievlarining asarlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning nazariy asoslarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan . Xususan, soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish tartibini o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda uni o'tkazish bosqichlariga to'xtalib o'tilgan. Biroq ko'plab tadqiqotlarda faqatgina o'ziga xos xususiyatlari bosqichlarining nomi keltirilib, uning tarkibi atroflicha yoritilmagan. Ta'kidlash joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish tartibini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga keng e'tibor qaratilmagan hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi mazkur sohada chuqr ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi. Shu jihatdan, muammoning nazapiy va amaliy jihatdan hal qilinishi" maqola mavzusini dolzapbligini belgilaydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolamizda olib borilgan tadqiqot davomida nazariy va amaliy o'rganish, tizimli yondashuv, guruhash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida soliq nazoratini tashkil etish va o'tkazish tartibini o'ziga xos xususiyatlari faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil

<sup>1</sup> 1. Jumayev S. Respublikamizda Yirik soliq to'lovchilar ma'murchiligi (soliq nazorati) ta'minlanishini takomillashtirish masalalari //Proceedings of International Educators Conference. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 18-22.

qilish yo'llarini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini ishlab chiqishga qaratilgan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy siyosat to'la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishida moliyaviy nazorat o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Davlat moliya nazoratining o'ziga xosligi shunda namoyon bo'ladiki, uning faoliyat sohasi va tekshiruvlar obyekti moliyaviy munosabatlar hisoblanadi<sup>2</sup>. Moliyaviy nazorat moliyaga xos tekshirish funksiyasini amalga oshirish shakli hisoblanadi. Aynan moliya moliyaviy nazoratning maqsadi va mazmunini belgilab beradi. E.A.Voznesenskiy moliyaviy nazoratning o'ziga xosligini ta'kidlab, moliyaviy nazoratning bevosita obyekti - ijtimoiy mahsulot qiymati taqsimlanishini aks ettiruvchi pul jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini ekanligini aytadi<sup>3</sup>. Biroq, nazarmizda, bozor munosabatlari sharoitida soliq nazorati obyektiga berilgan bunday tavsif to'liq emas. O'zbekiston Respublikasining "Soliq to'g'rida"gi qonuni Soliq nazorati subyektlari (soliq inspeksiyalari) zimmasiga korxonalar (mulkchilik shaklidan qat'i nazar) va fuqarolarning soliqqa tortish va pul mablag'larini davlat daromadiga o'z vaqtida hamda to'liq safarbar etish maqsadlariga qaratilgan pul mablag'lari harakati bilan bog'liq turli pul hujjatlari va hisobotlarini tekshirish majburiyatini yuklaydi. Soliq nazorati subyektlari zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, mansabdor shaxslar davlat pul jamg'armalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq bo'limgan, balki mazkur jarayon infratuzilmasini yaratuvchi amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya etishini tekshirish (masalan, xo'jalik yurituvchi subyektlarni aniqlash va ro'yxatga olish, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxat olish qoidalariga amal qilish, nazoratkassa apparatlaridan foydalanish, litsenziyalashni nazorat qilish) vazifasi ham yuklatiladi. Shuni qo'shimcha qilish joizki, soliq nazorati subyektlari soliqlarni to'g'ri hisoblash va ularni o'z vaqtida to'lashni nazorat qilish jarayonida soliq qonunchiligini buzgan yuridik, jismoniy va mansabdor shaxslarni moliyaviy hamda ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin<sup>4</sup>.

Davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar tegishli qarorlar hamda qoidalar bilan mustahkamlanayotir. Jamiyat ularni bajarmasdan o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga, ya'ni iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, ularning xavfsizligini

<sup>2</sup> 2. Otajonovich I.A. Mamlakat soliq ma'muriyatichiliqi tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish masalalari //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 20. – №. 4. – С. 131-134.

<sup>3</sup> 3. Olimovich F.O. Soliq to'lashdan qochishda zamонави fiskal nazorati instrumentlaridan foydalanish yo'llari //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 2. – С. 38-42.

<sup>4</sup> 4. Ungboyevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.

ta'minlash va boshqa maqsadlarga eria olmaydi. Nazorat teskari aloqa shakli hisoblanadi, ayni paytda boshqaruv qarorlari bajarilishining katalizatori rolini o'ynaydi. Boshqarilayotgan obyektning haqiqiy ahvoli to'g'risida ma'lumot olib va uni tahlili qilib vaziyatni yaxshilashga qaratilgan me'yoriy hujjatlar, boshqaruv qarorlari qabul qilish orqali muqobil tadbirlarni amalga oshirish zarurati to'g'risida xulosa qilish mumkin<sup>5</sup>.

Moliyaviy nazoratning turlari				
Umum davlat moliyaviy nazorati <i>(Davlat hokimiyati va bosharuvi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat)</i>	Vakolatli moliyaviy nazorat <i>(Vazirligining nazorat taftish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi)</i>	Ichki xo'jalik moliyaviy nazorati <i>(korxonalarining moliyaviy xizmat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning funksiyasi korxona-ning ishlab chiqarish moliyaviy fao-liyatini tekshirish hisoblanadi)</i>	Jamoat-chilik moliyaviy nazorati <i>(alohida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi)</i>	Mustaqil moliyaviy nazorat <i>(Audit nazorati, manffatdorlar iqtisodiy agentlari)</i>

Активация Win

### 1-rasm. Moliyaviy nazoratning turlari<sup>6</sup>

Hozirgi paytda korxonalar mustaqil xo'jalik subyektlariga aylanayotganligi, vertikal aloqalar o'rmini gorizontal aloqalar egallayotganligi, ilgari mavjud bo'lgan taqsimlash munosabatlari o'zgarayotganligi munosabati bilan iqtisodiyot fanida nazorat muammosi oldingi o'ringa chiqib, dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Moliyaviy nazorat ko'pincha hisoblash va tekshirish faoliyati sifatida emas, balki boshqaruv funksiyasi va davlatning iqtisodiy rolini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi<sup>7</sup>.

**Moliyaviy nazorat** - bu molianing nazorat funktsiyasini amalga oshirish shakli, ya'ni molianing o'ziga xos xususiyati jami ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning ishlab chiqarilishi, taqsimlanishi va ishlatalishi ustidan nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, molianing nazorat funktsiyasi moliyaviy nazoratning ob'ektiv asosi bo'lib, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj va ularning mavjudligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi<sup>8</sup>.

<sup>5</sup> 5. ABEBE H. Assessment of tax audit practice and its challenges: in the case of large taxpayers office, erca : дис. – St. Mary's University, 2017.

<sup>6</sup> 6. Mustafakulov, O. K. (2024). STATISTIKA TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI AMALIY TADBIQ ETISH METODOLOGIYASI. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(1), 45-54.

<sup>7</sup> 7. Aytkhozhina G., Miller A. State tax control strategies: Theoretical aspects //Contaduria y administracion. – 2018. – Т. 63. – №. 2. – С. 0-0.

<sup>8</sup> 8. Rossing C. P. Tax strategy control: The case of transfer pricing tax risk management //Management Accounting Research. – 2013. – Т. 24. – №. 2. – С. 175-194.

Zamonaviy sharoitda davlat va butun jamiyatning mavjudligi uchun mustahkam moliyaviy bazani yaratish, soliq sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, barcha darajadagi byudjetlarni o‘z vaqtida va to‘liq shakllantirishni davlat va jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirmsandan turib amalga oshirish mumkin emas. bir vaqtning o‘zida tashkilotlar va jismoniy shaxslarning huquqlarini hurmat qilgan holda davlatning moliyaviy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan samarali soliq nazorati tizimi. Har qanday zamonaviy davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ko‘p jihatdan soliq nazorati va soliqqa tortish tizimining qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq<sup>9</sup>.

Soliq xizmatini tashkil etish funksiyasi g‘aznachilikka bo‘ysunuvchi ikkita davlat idoralariga yuklatilgan. Ichki daromadlar departamenti (IDR) yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va yig‘imlar undirilishini nazorat qiladi, bular:

- – daromad solig‘i;
- – korporativ soliq;
- – daromad solig‘i;
- – neftga soliq solish;
- – meros solig‘i;
- – milliy sug‘urta depozitlari;
- – bojlar va aktsizlar.

Bundan tashqari, ish haqi va bolalar soliq imtiyozlarini to‘lash ichki ishlar boshqarmasi nazoratida. Boj va aktsizlar departamenti (DAT) bilvosita soliqqa tortish tizimini boshqaradi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo qator mamlakatlarda soliq ma’muriyatları stol soliq tekshiruvlarini samarali o‘tkazish imkonini beradigan katta vakolatlarga ega. Masalan, Fransiya, Shvetsiya, Germaniyada soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq organlari tekshirilayotgan soliq to‘lovchilarining buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarining elektron ma’lumotlar bazalariga kirish huquqiga ega. Bir qator mamlakatlarda soliq organlari soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan milliy banklar, shuningdek, boshqa idora va tashkilotlar (statistika organlari, monopoliya tashuvchilar va boshqalar) ma’lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

### **1-jadval.**

**O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlari soliq tekshiruvlarining yutuq va kamchiliklari(2022-yil ma’lumotlarga ko‘ra).**

Parametr	Germaniyada soliq tekshiruvi	AQSHda soliq tekshiruvi	O‘zbekistonda soliq tekshiruvi
----------	---------------------------------	-------------------------------	-----------------------------------

<sup>9</sup> 9. Sardor Bahodir og‘li Mavlonov Nasiba Komiljanovna Ismailova. “Soliq tekshiruvining turlari va uni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari”

Soliq tekshiruvlar soni (yilda)	180,000	1,100,000	38900
Soliq tekshiruvlar davomi (kun)	133	190	95
Muvaffaqiyatli soliq tekshiruvlar foizi	83%	78%	72%
Soliq tekshiruvlar afzallikkleri	- Qiyinchilik to‘g‘ri va ishonchli turli soliq holatlarni aniqlashda yuqori aniqlilik va ishonch	- Murakkab biznes va soliq qoida va tartibotlarini samarali qo‘llash	- Soliq qonunlarining talablari va bajarilishi haqida qandayroq to‘g‘ri tushuncha asosida joylashtirilgan qulay soliq tekshiruvi (ITO)
Soliq tekshiruvlar kamchiliklari	- Soliq tekshiruvi o‘tkazish uchun yuqori vaqt va resurs sarflari	- Murakkab qoida va biznesga tegishli talablarni qo‘llashda qiyinchiliklar	- Ma’lumotlarga kirishning cheklanishi va soliq ma’lumotlari va to‘lovlar bilan bog‘liq operatsiyalarning sekinlashishi
Soliq tekshiruvi muammolari	- Germaniyada kompaniyalar biznes jarayonlari va operatsiyalariga ta’sir ko‘rsatadi	- Soliq qonunlarini va normativ hujjatlarni buzishning va shtraflar va o‘zgarishlari keltirishining kuchaytirishi mumkin	- Soliq organlari bilan ma’lumot almashishda vaqtinchilik va ko‘rsatkichlarning yetarlicha yo‘qligi

Manba: internet ma’lumotlari asosida ishlab chiqild<sup>10</sup>i.

1-jadvalni tahlil qilib, O‘zbekiston, AQSh va Germaniyadagi soliq tekshiruvlari o‘rtasida bir qancha asosiy farq va o‘xshashliklarni aniqlash mumkin.

<sup>10</sup> internet ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Nazarimizda, soliq nazoratiga soliq mexanizmi, ya’ni soliq munosabatlarini boshqarish tizimining funktsional elementi sifatida qarash lozim. Shu bilan birga soliq inspeksiyalari soliq qonunchiligini tekshirish choralarini amalga oshirish jarayonida quyidagilar bilan muayyan huquqiy munosabatlarga kirishadi: - soliq to’lovchilar - yuridik va jismoniy shaxslar bilan soliqlarni to’lash, soliq qonunchiligini buzish uchun (sud va suddan tashqari) javobgarlikka tortish yuzasidan; - vakillik va ijro hokimiyati organlari bilan soliqlar yig’ishni tashkil qilish, soliq qonunchiligiga rioya etilishi to’g’risida ma’lumot berish va h.k. yuzasidan; - ijro hokimiyati, nazorat organlari va bank tizimi bilan axborot almashish va nazorat funksiyalarini amalga oshirish, soliq tushumlari bilan bog’liq vaziyatni tahlil qilish va h.k. yuzasidan; - huquqni muhofaza qilish organlari bilan soliq to’lovchilar bilan bo’lgan nizolarni hal etish va javobgarlikka tortish (javobgarlikdan ozod qilish) masalalari yuzasidan. O’zbekiston Respublikasida Davlat soliq nazorati tizimi soliq qonunchiligiga rioya qilinishi ustidan nazorat tizimining umumiyligi, mustaqilligi va markazlashtirilishi tamoyillari asosida qurilgan. Tizimining umumiyligi soliq siyosatining umumiyligi tamoyilidan kelib chiqadi: soliq qonunchiligining bir xilda qo’llanishini ta’minlash uchun yagona nazorat organi bo’lishi lozim. Davlat soliq nazorati o’z vakolatlarini davlat va mahalliy soliqlarga nisbatan amalga oshiradi.

Hozirgi paytgacha soliq organlarini tashkil qilishning umumiyligi tamoyillarini belgilovchi qonun qabul kilinmagan. Bunday qonun qabul qilingunga qadar ilari federal darajada qabul qilingan normavtiv hujjatlar o’z kuchini saqlab qoladi. Kelgusida soliq organlarini tashkil qilishda umumiyligi tamoyiligi ehtiyoj yo’qolishi mumkin. Biroq hozirgi sharoitda unga rioya etish zarur. Soliq nazorati subyektlarining mustaqilligi deyilganda ularning hududiy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlaridan mustaqilligi tushuniladi. U hokimiyat bo’linishi tamoyilining aniq belgisi bo’lib, mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy soliqlarni joriy qilish, to’lov stavkalari, imtiyozlarni belgilashda namoyon bo’ladi. Soliq inspeksiyalari mahalliy hokimiyat organlarining qonunga muvofiq va o’z vakolatlari doirasida qabul qilgan soliq masalalariga doir qarorlarini bajaradi. Mazkur tamoyil Davlat soliq nazorati endi shakllana boshlagan mahalliy hokimiyat organlari qonunlarga zid bo’lgan ma’muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechmagan, soliq organlari esa to’liq vakolatga ega nazorat organlari kuchiga ega bo’lmagan davrda muhim rol o’ynadi. Soliqqa tortish og’irligini jismoniy shaxslar zimmasiga ko’chirish, aholining keng qatlamlari, jumladan davlat xizmatchilarining xarajatlarini deklaratsiyalash mexanizmi joriy qilish sharoitida mustaqillik tamoyili yanada dolzarblik kasb etadi. O’zbekiston Respublikasida soliq qonunchiligiga rioya etish ustidan markazlashtirilgan nazorat tizimi bo’ysinish va lavozimlarga tayinlashning vertikal tuzilmasini ko’zda tutadi

hamda uchta darajaga ega: yuqori (markaziy), o'rta (hududiy) va quyi (mahalliy)<sup>11</sup>. Davlat soliq xizmatining tashkiliy tuzilmasining o'ziga xos xususiyati davlat ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiqligi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga hozirgacha amal qilib kelinmoqda va Davlat soliq xizmati to'g'risidagi nizomning tegishli davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik borasidagi talablariga javob beradi. Soliq inspeksiylarining soliq nazorati subyektlari sifatidagi ish tajribasi soliq organlarining vertikal bo'yicha qat'iy bo'ysinishi va mahalliy soliq inspeksiylarining aparat tuzilmasini tanlashdagi erkinligi o'rtasida ziddiyat mavjudligini ko'rsatadi<sup>12</sup>. Bunday vaziyat yuqori soliq idoralarining quyi idoralar bilan boshqaruv, metodik rahbarlik, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, faoliyatning istiqbolli yo'nalishlari ijobiy tajribani joriy qilish va boshqa masalalardagi munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Davlat soliq nazorati markaziy apparatdan tashqari hududiy soliq inspeksiyalari, shaharlar va tumanlar bo'yicha soliq inspeksiylarini birlashtirgan. Davlat soliq nazorati mutaxassislарining fikricha soliq organlari xodimlari sonini ko'paytirish byudjet tizimiga qo'shimcha ravishda soliqlar va majburiy to'lovlar kelib tushishini ta'minlaydi<sup>13</sup>.

Davlat soliq nazorati asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Kechikishlar bilan va to'liq bo'limgan miqdorda moliyalash, ayrim hollarda moliyalashning umuman mavjud emasligi soliq organlarining nazorat hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirishga doir tahliliy ishlarini bajarishdagi vaziyatni keskinlashtiradi.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yiQilishi soliq to'lovchilar ishlashni bevosita ta'minlovchi hududiy va quyi soliq inspeksiyalari o'z faoliyatini amalga oshirayotgan shart-sharoitlarga bog'liq. Mustaqil balansda xizmat binolarining yo'qligi, shuningdek, inspeksiyalarning davlat xizmati organlari uchun yaroqsiz binolarda joylashtirilishi tezkor axborot uzatish va aloqa vositalaridan foydalanish, moddiy-texnikaviy bazani rivojlantirish, ishonchli qo'riqlashni ta'minlash imkonini bermaydi. Shu blan birga soliq inspeksiyalarini moddiy-texnikaviy ta'minlash va boshqa ijtimoiy masalalarni mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklash soliq inspeksiyalarini bog'liq holatga tushrib qo'yishi mumkin. Hozirgi paytda soliq xizmatini modernizatsiyalash loyihasi amalga oshirilmoqda. Uning amalga oshirilishi davlat soliq inspeksiyalarini texnikaviy ta'minlash, zamонавиy axborotni muhofaza qilish vositalarini joriy etish, telekommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish, axborotni magnitli uzatgichlar va aloqa kanllari bo'yicha uzatishni

<sup>11</sup> 10. Soliq.uz

<sup>12</sup> 11. Дадашев А. З., Пайзулаев И. Р. Налоговый контроль в Российской Федерации. – 2012.

<sup>13</sup> 12. Pokrovskia N. V., Belov A. V. Tax revenues of local budgets in unitary states: A case study of Japan //Journal of Tax Reform. – 2020. – Т. 6. – №. 1. – С. 73-89.

huquqiy ta'minlashni ko'zda tutadi. O'tish davrida davlat soliq inspeksiylarining tashkiliy tuzilmalari bo'yichaa loyihalarni o'rganish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijalari soliq xizmavtini modernizatsiyalash muammosini uzoq muddatli va yirik investitsiyalarsiz amalga oshirish mumkin emas degan xulosaga kelish imkonini beradi; tuzilmani modernizatsiya kontseptsiyasiga muvofiqlashtirish uchun xodimlar soni ayniqsa qishloq hududlarida etarlicha emas. Soliq organlari faoliyatida soliq to'lovchilar, ularning mulkiy va moliyaviy ahvolini xisobga olishni avtomatlashdirish, shuningdek soliq to'lovlarining to'liq va o'z muddatida amalga oshirilishini tezkor monitoring qilish tizimi muhim rol o'ynaydi. Biroq soliq organlarini jihozlash darajasi etarlicha emas va mavjud soliq ma'lumotlarining 50 foiziga ishlov berish imkonini beradi. Soliq xizmati ishini maqsadli rivojlantirish va moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlashsiz, ya'ni belgilangan normativlarga muvofiq xizmat binolari, transport, ko'paytirish va hisoblash texnikasi, telekommunikatsiya aloqasi vositalari bilan ta'minlash, soliq nazorati jarayonini zamonaviy axborotni yig'ish, ishlov berish, saqlash va uzatish vositalarisiz takomillashtirish mumkin emas. Bugungi kun voqeligi soliq organlari moddiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish bo'yicha yagona kontseptsiyani ishlab chiqish hamda so'zsiz amalga oshirishni talab qilmoqda. Butun respublikada soliq inspeksiyalari moddiy-texnikaviy bazasini bir xilda rivojlantirish kelajakda gorizontal va vertikal bo'ylab barcha darajalarda yaxlit axborot ta'minoti tizimini yaratish imkonini beradi. Hozirgi paytda soliqlarni yig'ish ustidan nazorat etarlicha bo'limgan metodik va kadrlar ta'minoti sharoitida amalga oshirilmoqda. Metodik ta'minot soliq nazoratining maqsadi, shakli va usullarini belgilovchi yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, tavsiyalar va boshqa materiallarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jumayev S. Respublikamizda Yirik soliq to'lovchilar ma'murchiligi (soliq nazorati) ta'minlanishini takomilashtirish masalalari //Proceedings of International Educators Conference. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 18-22.
2. Otajonovich I.A. Mamlakat soliq ma'muriyatichiligi tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish masalalari //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 20. – №. 4. – С. 131-134.
3. Olimovich F.O. Soliq to'lashdan qochishda zamonaviy fiskal nazorati instrumentlaridan foydalanish yo'llari //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 2. – С. 38-42.
4. Ungboyevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.

5. ABEBE H. Assessment of tax audit practice and its challenges: in the case of large taxpayers office, erca : дис. – St. Mary's University, 2017.
6. Mustafakulov, O. K. (2024). STATISTIKA TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI AMALIY TADBHQ ETISH METODOLOGIYASI. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(1), 45-54.
7. Aytkhozhina G., Miller A. State tax control strategies: Theoretical aspects //Contaduría y administración. – 2018. – Т. 63. – №. 2. – С. 0-0.
8. Rossing C. P. Tax strategy control: The case of transfer pricing tax risk management //Management Accounting Research. – 2013. – Т. 24. – №. 2. – С. 175-194.
9. Sardor Bahodir og'li Mavlonov Nasiba Komiljanovna Ismailova. “Soliq tekshiruvining turlari va uni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari”
10. Soliq.uz
11. Дадашев А. З., Пайзулаев И. Р. Налоговый контроль в Российской Федерации. – 2012.
12. Pokrovskaya N. V., Belov A. V. Tax revenues of local budgets in unitary states: A case study of Japan //Journal of Tax Reform. – 2020. – Т. 6. – №. 1. – С. 73-89.